


## VII. BANDLIK VA MEHNAT BOZORI

2022- yil yanvar-sentabr oylarida bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga ishga joylashtirishda yordam berishni so‘rab 28906 nafar fuqaro murojaat qildi. Ish qidirib murojaat etganlarning katta qismi Qarshi shahrida (2491 kishi), G‘uzor (2063 kishi), Chiroqchi (2057 kishi), Qarshi (2366 kishi), Koson (2466 kishi), Muborak (2115 kishi), Shahrisabz (2202 kishi), Kitob (1964 kishi) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga murojaat qilgan fuqarolardan 21226 nafari ishga joylashtirildi. Ayniqsa ushbu ko‘rsatkich, Qarshi shahrida (2225 kishi), Koson (2047 kishi), Qarshi (1612 kishi), Kitob (1519 kishi), Chiroqchi (1500 kishi), Yakkabog‘ (1417 kishi), Qamashi (1380 kishi), Shahrisabz (1287 kishi), tumanlarida yuqori darajada bo‘ldi. O‘tgan davr mobaynida bandlikka ko‘maklashuvchi markazlarida ro‘yxatga olingan fuqarolardan 2774 nafari ishsizlik maqomini olgan.

Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni quyidagicha ifodalanadi:

**Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni**  
(kishi)



**Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga ish qidirib murojaat etgan va ro‘yxatga olinganlar soni**


*(2022- yil 1- oktabr holatiga, kishi)*

	<i>Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga ish qidirib murojaat etganlar soni</i>		<i>jumladan, rasman ishsiz maqomini olganlar</i>		<i>ulardan, ishsizlik nafaqasi ajratilganlar soni</i>	
	<i>2021- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2022- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2021- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2022- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2021- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2022- yil yanvar-sentabr</i>
<b>Viloyat bo‘yicha:</b>	<b>55189</b>	<b>28 906</b>	<b>4825</b>	<b>2774</b>	<b>3943</b>	<b>2774</b>
<i>shaharlar:</i>						
Qarshi	5346	2491	541	209	381	209
Shahrisabz	2410	1361	174	298	88	298
<i>tumanlar:</i>						
G‘uzor	5071	2063	385	324	537	324
Dehqonobod	2012	1199	85	23	126	23
Qamashi	4941	1797	713	283	351	283
Qarshi	4204	2366	261	142	302	142
Koson	2493	2466	191	37	689	37
Kitob	4196	1964	112	164	103	164
Mirishkor	1244	898	70	201	70	201
Muborak	2731	2115	569	75	99	75
Nishon	2624	1970	296	273	165	273
Kasbi	3232	1181	285	164	267	164
Ko‘kdala	-	1077	-	16	-	16
Chiroqchi	7063	2057	429	77	177	77
Shahrisabz	2982	2202	291	283	326	283
Yakkabog‘	4640	1699	423	205	262	205



**Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga ish qidirib murojaat etgan fuqarolarning hududlar kesimidagi ulushi**

*(jami murojaat qilganlarga nisbatan ulushi, foizda)*



**Izoh:** 2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga murojaat qilib kelganlardan ro‘yxatga olinganlar ulushi Qarshi shahri va Koson, Qarshi, Shahrisabz, Chiroqchi, G‘uzor tumanlarida yuqori bo‘lgan.


Ish bilan ta'minlangan aholi soni<sup>1)</sup>

	<i>2021- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2022- yil yanvar-sentabr</i>
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>16883</b>	<b>21 226</b>
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi	2532	2225
Shahrisabz	821	1008
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	1824	1464
Dehqonobod	388	1101
Qamashi	916	1380
Qarshi	2067	1612
Koson	361	2047
Kitob	2152	1519
Mirishkor	153	682
Muborak	1138	956
Nishon	886	1095
Kasbi	1445	1031
Ko'kdala	-	902
Chiroqchi	574	1500
Shahrisabz	602	1287
Yakkabog'	1024	1417

<sup>1)</sup>Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlari asosida



**Ish bilan ta'minlangan aholining hududlar kesimidagi ulushi <sup>1)</sup>**  
 (jami ish bilan ta'minlanganga nisbatan ulushi, foizda)



**Izoh:** Ishga joylashtirilgan shaxslar soni Qarshi shahrida, Koson, Kitob, Chiroqchi, Qarshi, Shahrisabz va Yakkabog' tumanlarida yuqori bo'lganligini ko'rish mumkin.

<sup>1)</sup> Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlari asosida

## O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI



tashkil etdi.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko‘rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2022- yil yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 851,3 ming so‘mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud)

### **Tarmoqlar kesimida o‘rtacha oylik ish haqi** (2022- yil 1- oktabr holatiga qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

(dastlabki qayta hisoblangan)

	<b>O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘mda</b>
<b>Qashqadaryo viloyati bo‘yicha - jami</b>	<b>2851,3</b>
<i>shu jumladan:</i>	
Sanoat	4493,6
Qurilish	4526,8
Savdo	2667,8
Tashish va saqlash	3965,5
Axborot va aloqa	3809,9
Moliya va sug‘urta faoliyati	6841,4
Ta‘lim	2258,2
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	2152,0
Boshqa faoliyat turlari	3299,9

### O'rtacha oylik ish haqining tarmoqlar kesimida, ming so'm (2022- yil 1- oktabr holatiga)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat tumanlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Qarshi shahrida 3 811,4 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 133,7%), Muborak tumanida 3 733,3 ming so'mni (130,9 %), G'uzor tumanida 3 429,2 ming so'mni (120,3%), va tashkil etgan bo'lsa, Qarshi tumanida 2 094,7 ming so'mni (73,5 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.


**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi hududlar kesimida <sup>1)</sup>**  
(2022- yil 1- oktabr holatiga)

	<i>Mehnat resurslari soni</i>	<i>O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (mingso‘mda)</i>
<b>Viloyat bo‘yicha:</b>	<b>x</b>	<b>2851,3</b>
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi	x	3811,4
Shahrisabz	x	2319,1
<i>tumanlar:</i>		
G‘uzor	x	3429,2
Dehqonobod	x	2670,3
Qamashi	x	2111,0
Qarshi	x	2094,7
Koson	x	2310,8
Kitob	x	2310,2
Mirishkor	x	2409,0
Muborak	x	3733,3
Nishon	x	2974,0
Kasbi	x	2319,0
Ko‘kdala	x	2265,3
Chiroqchi	x	2542,9
Shahrisabz	x	2356,1
Yakkabog‘	x	2334,8

<sup>1)</sup>dastlabki ma’lumot



### O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (ming so'mda)



**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2022- yil yanvar-sentabr oylarida 920,0 ming so'mni tashkil etgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20- maydagi 138- sonli Farmoniga binoan mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasiga o'zgartirish kiritildi) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.